

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich

Farg'ona davlat universiteti pedagogika fanlari bop'yicha falsafa doktori (PhD)

Boymirzayeva Shahnoza Olimjon qizi

Farg'ona Davlat Universiteti Magistratura bo'limi Ta'lif va tarbiya nazariyasi va
metodikasi(maktabgacha ta'lif) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7933108>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachining innovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ommalashtirish usullari, maktabgacha ta'lif tashkilotida tarbiyachilarining inovatsion faoliyatini tizimli tashkil etishni rivojlantirish usullarni aniqlash, tarbiyachilarining kasbiy mahoratini oshirishni ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion faoliyat, texnologiya, pedagogik texnologiya Bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan ta'lif sohasini innovatsion pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Pedagogik texnologiyalar ta'lif soxasini har bir jabhasini egallab bo'lgan shu jumladan, maktabgacha ta'lifda ham mashg'ulotlarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natijalar beradi.

Hozirgi taraqqiyotimizning talablari asosida ta'lif standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta'lif muassasalariga yetkazilib berilmogda. Ta'lif muassasalarining moddiy bazalari jadallik bilan mustahkamlanmoqda.

Har bir sohaga kirib kelgani kabi ta'lif sohasiga ham innovatsiya so'zi kirib keldi. Yangilik: g'oya, aniq bir shaxs uchun yangilik, vosita (yangi metod).

Innovatsiya: 1) yangilanish, o'zgarish; 2) biror-bir yangilikni kiritish; 3) yangilikni o'zlashtirish jarayoni. Innovatsiya (inglizcha Innovation - yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyat va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyatga kiritish).

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi.

Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega:

"Innovatsiya (ingl. "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro)

1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar;

ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi".

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yordarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Mazmunan innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba- sinovishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan

mahsulotni yaratishdan iborat hisoblanadi. Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g'oyasi paydo bo'ladi. U sotsial holatga undan ta'limdagi yangilikni tug'ilishi, paydo bo'lishiga olib keladi.

Innovatsion jarayonning ba'zi yangiliklari local tadqiqotlar o'tkazish va tajriba- sinovlar orqali tadbiq qilishdan farqlash kerak. Masalan, mакtabda qo'shimcha kursni innovatsion deb bo'lmaydi.

Shunday qilib biror g'oyani yangilik darajasida yaratib, faoliyatga olib kirib, u jarayonni boshqarib boorish mumkin bo'lsa, innovatsion faoliyat hisoblanadi

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya- ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob`ektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi.

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakkantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma`naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo`naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob`ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo'llab- quvvatlandi.

References:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.Nasaf,2000
2. Sayidahmedov N.Pedagogikmahoratvapedagogiktexnologiya.–T.:OPI,2003.
3. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To'rayev Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent-2015
4. Мухина С.А. Соловьева А.А. Современные инновационные технологии обучения. – М. : "ГЭОТАР-Медия" 2008-43 с
5. Pedagogikafanidanizohlilug'at/TuzuvchilarJ.Yu.Hasanboevvaboshq. –Toshkent:"Fanvatexnologiya" nashriyoti,2009.
6. <http://www.pedagog.uz>